

CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib




O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda




Dastlabki ma'lumotlar

Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 374,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **3,6 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning tovar aylanmasi **452,3** mlrd. so'mni (o'zgarish sur'ati **90,5 %**), kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining tovar aylanmasi **3 921,9** mlrd. so'mni (**2,9 %** ga kamaydi), shundan uyushmagan savdo tovar aylanmasi **377,8** mlrd. so'mni (**27,3 %** ga kamaydi) tashkil etdi.

Tarkibiy qism, ulushlarda



Uyushmagan savdo, mlrd. so'm






HUDUDLAR KESIMIDA CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI, mlrd. so'm

UMUMIY MA'LUMOT

Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi **4 374,2** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **96,4 %** ni tashkil etdi.



Respublikamiz chakana savdo tovar aylanmasida barcha tumanlarda kamayish sur'atlari kuzatildi. Chakana savdo tovar aylanmasining tarkibiy qismlarida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga **89,7 %** va yirik korxonalar hissasiga **10,3 %** to'g'ri keldi.

ENG YUQORI ULUSH


Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori ulushni Nukus shahri **30,7 %** ulush bilan **1 342,6** mlrd. so'mni tashkil etdi.

ENG QUYI ULUSH

Respublika chakana savdo tovar aylanmasida eng quyi ulushni Bo'zatov tumani **0,5 %** ulush bilan **22,5** mlrd. so'mni tashkil etdi.

YIRIK KORXONALAR, KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK SUBYEKLARINING CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020- yil yanvar-avgust



Chakana savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **3 921,9 mlrd. so'mni** tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,9 %** ga kamaygan. Jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **89,7 %** ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Bo'zatov (100,0 %), Qonliko'l (99,9 %), Qorao'zak (99,7 %), Shumanoy (99,7 %), Kegeyli (99,6 %), Mo'ynoq (99,5 %) va Nukus tumanlarida (99,4 %) yuqori bo'lgan.




Yirik korxonalar	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari	2019- yil yanvar-avgust	2020- yil yanvar-avgust





**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI**

2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan respublikaning barcha hududlarida chakana savdo tovar aylanmasining kamayish sur'atlari kuzatilib, nisbatan yuqori ko'rsatkichlar Kegayli (99,0 %), Taxtako'pir (99,4 %) va Shumanoy tumanlarida (98,8 %) qayd etildi.



Chakana savdo aylanmasining o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	4 374,2	96,4	452,3	90,5	3 921,9	97,1
Nukus shahri	1 342,6	95,7	358,9	93,9	983,7	96,4
tumanlar:						
Amudaryo	311,6	96,6	9,8	65,2	301,8	98,1
Beruniy	417,7	95,9	7,8	89,6	409,9	96,0
Bo'zatov	22,5	88,5	-	-	22,5	88,5
Qonliko'l	109,3	98,3	0,1	55,6	109,2	98,4
Qorao'zak	139,1	98,3	0,4	71,5	138,8	98,4
Kegeyli	70,0	99,0	0,3	58,8	69,7	99,2
Qo'ng'irot	323,2	97,0	27,4	2,4 b.	295,8	92,0
Mo'ynoq	30,0	96,5	0,1	27,1	29,8	97,7
Nukus	79,5	96,0	0,5	111,4	79,0	95,9
Taxiatush	101,3	94,7	15,6	88,9	85,7	95,8
Taxtako'pir	111,0	99,4	1,3	177,3	109,7	98,9
To'rtko'l	382,3	96,7	12,6	35,9	369,6	102,7
Xo'jayli	428,7	95,9	7,0	83,1	421,7	96,2
Chimboy	172,6	96,0	5,4	40,0	167,2	100,6
Shumanoy	91,5	98,8	0,3	44,8	91,2	99,2
Ellikqal'a	241,3	97,5	4,8	115,9	236,5	97,2

CHAKANA SAVDO TOVAR
AYLANMASI TARKIBI

Chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning tovar aylanmasi hajmi, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **90,5 %** ni va **452,3 mld. so'mni** tashkil qildi. Bu esa umumiy savdo hajmining **10,3 %** ulushiga to'g'ri keladi.

**Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari**

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining chakana savdo tovar aylanmasi hajmi statistik hisob-kitoblarga ko'ra, **3 921,9 mld. so'mni** tashkil etib, 2019- yilning yanvar-avgust oylariga nisbatan **2,9 %** ga kamaydi. Respublika miqyosida ushbu sektorning jami chakana savdo tovar aylanmasidagi ulushi **89,7 %** ni tashkil etdi.


**CHAKANA SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR,
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK
SUBYEKTLARINING HUDUDLAR KESIMIDA ULUSHI (foizda)**

Nukus sh.	26,7	73,3
Ellikqal'a	2,0	98,0
Shumanoy	0,3	99,7
Chimboy	3,1	96,9
Xo'jayli	1,6	98,4
To'rtko'l	3,3	96,7
Taxtako'pir	1,2	98,8
Taxiatosh	15,4	84,6
Nukus	0,6	99,4
Mo'ynoq	0,5	99,5
Qo'ng'irot	8,5	91,5
Kegeyli	0,4	99,6
Qorao'zak	0,3	99,7
Qonliko'l	0,1	99,9
Bo'zatov		100,0
Beruniy	1,9	98,1
Amudaryo	3,1	96,9

■ Yirik korxonalar

■ Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik

Tahliliy natijalarga ko'ra, chakana savdo tovar aylanmasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlarining ulushi bo'yicha Bo'zatov (100,0 %), Qonliko'l (99,9 %), Qorao'zak (99,7 %) va Shumanoy (99,7 %) tumanlari yetakchilik qilmoqda. Chakana tovar aylanmasi tarkibida yirik korxonalarning ulushi 10,3 % ni tashkil etib, eng katta ulush Nukus shahrida (26,7 %), Taxiatoш (15,4 %), Qo'ng'irot (8,5 %) va To'rtko'l (3,3 %) tumanlarida kuzatildi.



2020- yil yanvar-avgust oylari holatiga ko'ra o'rtacha aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi **2 297,1** ming so'm (2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **5,0 %** ga kamaydi) va Nukus shahri (94,3 %) hamda Bo'zatov (88,1 %), Taxiatush (93,5 %), Nukus (94,0 %), Beruniy (94,1 %), Xo'jayli (94,7 %) tumanlari va boshqa barcha hududlarda aholi jon boshiga chakana savdo tovar aylanmasi ko'rsatkichlarida kamayish sur'atlari kuzatildi.

Ushbu ko'rsatkichni hududlar kesimida solishtirilganda eng yuqorisi Nukus shahri (4 185,2 ming so'm), Xo'jayli (3 482,2 ming so'm) va Taxtako'pir (2 760,5 ming so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.


QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI BO'YICHA AHOLO JON BOSHIGA NISBATAN CHAKANA SAVDO TOVAR AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI




	Hajm, ming so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, % da
Qoraqalpog'iston Respublikasi	2 297,1	95,0
Nukus shahri	4 185,2	94,3
tumanlar:		
Amudaryo	1 559,6	94,8
Beruniy	2 175,5	94,1
Bo'zatov	1 042,8	88,1
Qonliko'l	2 135,1	97,0
Qorao'zak	2 629,9	97,4
Kegeyli	964,7	98,0
Qo'ng'irot	2 480,5	95,8
Mo'yanoq	940,1	95,0
Nukus	1 578,1	94,0
Taxiatush	1 369,4	93,5
Taxtako'pir	2 760,5	98,7
To'rtko'l	1 778,8	95,1
Xo'jayli	3 482,2	94,7
Chimboy	1 534,0	95,2
Shumanoy	1 624,7	97,8
Ellikqal'a	1 510,7	95,6

UYUSHMAGAN SAVDO
TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



Oʼsish (oʼzgarish) surʼatlari, foizda



Respublika boʼyicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida uyushmagan savdo tovar aylanmasi **377,8** mlrd. soʼmni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **27,3 %** ga kamaydi. Shu jumladan, 1-bozor va 1-bozor (chorva) (oylik) kuzatuvlari maʼlumotlariga asosan, dehqon bozorlarida savdo faoliyati bilan shugʼullanuvchi jismoniy shaxslarning uy xoʼjaliklarida yetishtirgan mahsulotlarining sotish hajmi **129,1** mlrd. soʼmni (oʼzgarish surʼati **61,3 %**), chorva mollari va parrandalar sotuvchi jismoniy shaxslarning savdo aylanmasi hajmi **248,7** mlrd. soʼmni (oʼzgarish surʼati **80,5 %**) tashkil etdi.


Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Uyushmagan savdo **377,8** mlrd. soʼm, 100 %

Dehqon bozorlari **129,1** mlrd. soʼm, 34,2 %

Chorva bozorlari **248,7** mlrd. soʼm, 65,8 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar



UYUSHMAGAN SAVDO AYLANMASIDA DEHQON* VA
CHORVA (PARRANDA) BOZORLARINING SAVDO
AYLANMASI HAJMI VA O'ZGARISH SUR'ATLARI

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020- yil yanvar-avgust

2020- yilning yanvar-avgust oylarida dehqon va chorva (parranda) bozorlarida, uy xo'jaligida yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, parrandalar va chorva mollari savdosi bilan shug'ullanuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi, dastlabki ma'lumotlarga ko'ra jismoniy shaxslar tomonidan amalga oshirilgan savdo aylanmasi hajmi dehqon bozorlarida **129,1** mlrd. so'mni, chorva (parranda) bozorlarida **248,7** mlrd. so'mni tashkil etdi.



* Xo'jalik yurituvchi subyektlar va yakka tartibdagи tadbirkorlar (YTT)ni qо'shмаган holatda

* Jismoniy shaxslar (dehqonlar)ning uy xo'jaligida o'z kuchlari bilan yetishtirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari, chorva (parranda) mollari

	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Dehqon bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Chorva (parranda) bozorlari, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	377,8	72,7	129,1	61,3	248,7	80,5
Nukus shahri	110,9	57,4	12,1	60,0	11,4	116,5
tumanlar:						
Amudaryo	38,4	65,9	8,9	68,6	24,7	63,8
Beruniy	33,1	78,1	7,6	57,3	21,4	69,3
Bo'zatov	0,8	27,3	-	-	-	-
Qonliko'l	4,9	2,5 b.	3,4	57,6	21,0	65,9
Qorao'zak	6,5	3,5 b.	4,2	64,9	25,1	-
Kegeyli	12,7	190,3	19,1	62,8	15,7	81,3
Qo'ng'irot	43,8	84,5	14,8	60,7	13,0	75,7
Mo'ynoq	2,1	93,5	3,1	58,6	-	-
Nukus	2,9	107,0	3,5	60,2	17,7	47,8
Taxiatosh	10,0	70,7	3,5	60,3	6,9	100,6
Taxtako'pir	5,9	122,6	5,6	59,0	8,5	90,8
To'rtko'l	23,3	85,3	17,5	61,8	19,6	63,1
Xo'jayli	54,3	64,7	8,6	59,8	23,7	87,7
Chimboy	15,1	104,9	10,5	62,2	13,7	86,4
Shumanoy	2,5	138,1	2,8	53,8	5,2	94,2
Ellikqal'a	10,6	117,5	4,0	67,7	21,1	73,5



Tuzlamalar

2,6
mlrd. so'm



Yangi uzilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari

56,4
mlrd. so'm



3,6
mlrd. so'm

Quritilgan qishloq
xo'jaligi mahsulotlari
(yong'oq, bodom, pista va
boshqalarni qo'shgan holda)

7,6
mlrd. so'm



Non va non
mahsulotlari



9,7
mlrd. so'm

6,1
mlrd. so'm



Sut va sut
mahsulotlari

Tuxum

24,0
mlrd. so'm



Don mahsulotlari (mosh,
loviya, no'xat, guruch va
boshqalar)

4,0
mlrd. so'm



Chorva mollari va
parrandalar uchun har xil
yem-hashaklar



2,5
mlrd. so'm

Ziravorlar



11,0
mlrd. so'm

Tovuq go'shti




1,7
mlrd. so'm

Gullar, o'simlik va nihol
ko'chatlari (manzarali va
qishloq xo'jaligi)

2020- yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan dehqon bozorlarida qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotuvchi jismoniy shaxslarning tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **129,1** mlrd. so'mni tashkil etdi. Bunda asosiy yirik hajm yangi uzilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari savdosiga (**56,4** mlrd. so'm) to'g'ri keldi.

UYUSHMAGAN SAVDO TOVAR AYLANMASI: CHORVA (PARRANDA) BOZORLARI


2020- yilning yanvar-avgust oylarida respublikaning barcha hududlarida joylashgan chorva (parranda) bozorlarida parrandalar va chorva mollarini sotuvchi jismoniy shaxslar tanlanma kuzatuvi o'tkazildi. Kuzatuv natijalariga ko'ra savdo aylanmasi hajmi **248,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Bunda har xil yoshdagi qora mollar savdosi **209,1 mlrd. so'mni**, qo'y va echkilar **35,2 mlrd. so'mni**, otlar **1,7 mlrd. so'mni**, parrandalar **2,7 mlrd. so'mni** tashkil etdi. Savdo aylanmasining to'liq tarkibi quyidagi ko'rsatkichda o'z aksini topgan:





2020- yilning yanvar-avgust oylarida chakana savdo tovar aylanmasi tarkibida ovqatlanish tashkilotlarining savdo aylanmasi 1,9 % ni tashkil etib, 84,9 mlrd. so'mga yetdi va 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan 16,8 % ga kamaydi. Bunda jami savdo aylanmasining 80,8 % ulushi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik subyektlari hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasining
o'zgarish sur'atlari, foizda**



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda	Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik, mlrd. so'm	2019- yil yanvar- avgust oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	84,9	83,2	16,3	54,1 b.	68,6	67,4
Nukus shahri	29,1	68,9	-	-	29,1	69,2
tumanlar:						
Amudaryo	3,1	68,2	-	-	3,1	68,2
Beruniy	2,0	65,7	-	-	2,0	65,7
Bo'zatov	0,2	-	-	-	0,2	-
Qonliko'l	0,8	62,8	-	-	0,8	62,8
Qorao'zak	1,8	66,6	-	-	1,8	66,6
Kegeyli	0,6	49,1	-	-	0,6	49,1
Qo'ng'irot	32,8	132,6	16,3	-	16,5	66,7
Mo'ynoq	0,3	67,3	-	-	0,3	67,3
Nukus	0,6	67,4	-	-	0,6	67,4
Taxiatosh	1,5	67,1	-	-	1,5	67,1
Taxtako'pir	0,4	57,6	-	-	0,4	57,6
To'rtko'l	4,2	64,4	-	-	4,2	65,5
Xo'jayli	3,8	64,5	-	-	3,8	64,5
Chimboy	1,9	67,4	-	-	1,9	67,4
Shumanoy	0,3	62,6	-	-	0,3	62,6
Ellikqal'a	1,6	65,2	-	-	1,6	65,2

MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA UMUMIY OVQATLANISH KORXONALARI SAVDO AYLANMASI

2019- yil
yanvar-avgust



Umumiy ovqatlanish korxonalari savdo aylanmasi **84,9** mlrd. so'm (o'zgarish sur'ati 83,2 %) va mulkchilik shakllari bo'yicha **84,9** mlrd. so'm nodavlat mulkka (100,0 %) to'g'ri keldi.


	Jami, mln. so'm	Ulushi, foizda	Nodavlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda	Davlat mulki, mln. so'm	Ulushi, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	84 896,3	100,0	84 896,3	100,0	-	-
Nukus shahri	29 138,8	100,0	29 138,8	100,0	-	-
tumanlar:				100,0		-
Amudaryo	3 099,8	100,0	3 099,8	100,0	-	-
Beruniy	1 954,6	100,0	1 954,6	100,0	-	-
Bo'zatov	240,6	100,0	240,6	100,0	-	-
Qonliko'l	771,6	100,0	771,6	100,0	-	-
Qorao'zak	1 799,2	100,0	1 799,2	100,0	-	-
Kegeyli	626,0	100,0	626,0	100,0	-	-
Qo'ng'irot	32 760,9	100,0	32 760,9	100,0	-	-
Mo'ynoq	253,1	100,0	253,1	100,0	-	-
Nukus	593,1	100,0	593,1	100,0	-	-
Taxiatosh	1 544,7	100,0	1 544,7	100,0	-	-
Taxtako'pir	426,0	100,0	426,0	100,0	-	-
To'rtko'l	4 155,5	100,0	4 155,5	100,0	-	-
Xo'jayli	3 770,3	100,0	3 770,3	100,0	-	-
Chimboy	1 898,5	100,0	1 898,5	100,0	-	-
Shumanoy	299,6	100,0	299,6	100,0	-	-
Ellikqal'a	1 564,0	100,0	1 564,0	100,0	-	-

ULGURJI SAVDO
TOVAR AYLANMASI

Asosiy tarkib, foizda



O'sish (o'zgarish) sur'atlari, foizda



Respublika bo'yicha 2020- yilning yanvar-avgust oylarida ulgurji savdo tovar aylanmasi **1 168,9** mld. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **13,7 %** ga kamaydi. Shu jumladan, yirik korxonalarning savdo tovar aylanmasi **431,1** mld. so'mni (o'zgarish sur'ati **73,7 %**), kichik biznes subyektlarining savdo tovar aylanmasi **737,8** mld. so'mni (**4,3 %** ga kamayish) tashkil etdi.


Savdo aylanmasi hajmi va ulushi

Ulgurji savdo
1 168,9 mld. so'm, 100 %

Yirik korxonalar
431,1 mld. so'm, 36,9 %

Mikrofirma va kichik korxonalar
737,8 mld. so'm, 63,1 %

Eng yuqori ulushga ega hududlar






ULGURJI SAVDO AYLANMASIDA YIRIK KORXONALAR
VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING HAJMI VA
O'ZGARISH SUR'ATLARI

Ulgurji savdo tovar aylanmasida yuqori o'sish sur'atlariiga ega yirik korxonalar Amudaryo (136,3 %), Kegayli (196,0 %) va Taxiatoш tumanlarida (7,4 b.) kuzatildi.

Ulgurji tovar aylanmasida nisbatan yuqori o'zgarish sur'atlari Taxiatoш (113,3 %), Nukus (98,8 %) va Ellikqal'a (91,1 %) tumanlarida qayd etildi.


Ulgurji savdo aylanmasi o'zgarish sur'atlari, foizda



	Jami, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Yirik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda	Mikrofirma va kichik korxonalar, mlrd. so'm	2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan, foizda
Qoraqalpog'iston Respublikasi	1 168,9	86,3	431,1	73,7	737,8	95,7
Nukus shahri	608,2	89,0	183,4	61,9	424,8	109,8
tumanlar:						
Amudaryo	11,4	69,1	1,0	136,3	10,3	65,9
Beruniy	47,7	77,0	-	-	47,7	77,0
Bo'zatov	1,5	-	-	-	1,5	-
Qonliko'l	10,1	55,4	-	-	10,1	55,4
Qorao'zak	7,9	71,8	-	-	7,9	71,8
Kegeyli	0,6	77,3	0,0	196,0	0,6	77,2
Qo'ng'irot	18,8	59,7	-	-	18,8	59,7
Mo'ynoq	1,8	65,7	-	-	1,8	65,7
Nukus	66,3	98,8	-	-	66,3	98,8
Taxiatoш	22,5	113,3	4,1	7,4 b.	18,4	95,4
Taxtako'pir	7,1	80,6	-	-	7,1	80,6
To'rtko'l	50,2	78,2	-	-	50,2	80,8
Xo'jayli	257,8	86,0	242,5	85,3	15,2	97,7
Chimboy	11,8	60,4	0,0	0,5	11,8	61,8
Shumanoy	0,3	75,7	0,0	10,0	0,3	76,5
Ellikqal'a	44,9	91,1	-	-	44,9	91,1


YIRIK KORXONALAR VA KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASIDAGI ULUSHI, foizda

QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI
ULGURJI VA CHAKANA
SAVDO TOVAR AYLANMASI
2020- yil yanvar-avgust



Ulgurji savdo tovar aylanmasida eng yuqori hajm kichik biznes subyektlariga to'g'ri kelib, mazkur hajm 2020- yil yanvar-avgust oylari yakuniga ko'ra, **737,8** mlrd. so'mni tashkil etib, 2019- yil yanvar-avgust oylariga nisbatan **4,3** % ga kamaygan. Jami ulgurji savdo tovar aylanmasidagi ulushi esa **63,1** % ni tashkil etdi.

Bu ko'rsatkich hududlar kesimida taqqoslanganda, Beruniy, Bo'zatov, Qorao'zak, Qo'ng'irot, Qonliko'l, Mo'ynoq, Nukus, Taxtako'pir, To'rtko'l, Chimboy va Ellikqal'a tumanlarida 100,0 % bo'lgan. Eng past ulush esa Xo'jayli (5,9 %) tumaniga to'g'ri keldi.



MULKCHILIK SHAKLI BO'YICHA ULGURJI SAVDO TOVAR AYLANMASI

So'nggi yillarda ulgurji savdoda davlat sektorining o'rni pasayib bormoqda. 2020- yilning yanvar-avgust oylari yakunlari bo'yicha ulgurji savdo aylanmasi **1 168,9** mld. so'mni tashkil etib, shu jumladan nodavlat tasarrufiga ega subyektlar tomonidan ulgurji savdo aylanmasi **1 168,9** mld. so'mni tashkil etdi.



Hududlar kesimida barcha hududlarda ulgurji savdo to'liq nodavlat mulkka tegishli.

Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo statistikasi bo'limi
Tel.: 61 224-92-06